

5. Нурмухамедов М.К. Пушкиннің ертеклери хэм Орта Азия халықларының фольклоры. - Нөкис: «Қарақалпақстан», 1987. 29-32-б.

РЕЗЮМЕ

Мақолада қорақалпоқ халқ достони «Қирк киз» достонининг пайдо бўлиши, шаклланиши ва ривожланишида индивидуал ижод соҳиби жирова-шоирларнинг достон яратишдаги ижодий аңнаналари кенг таҳлил қилиниб, шу асосда «Қирик киз» - босқа халқларда ўхшаши йўқ миллий қорақалпоқ халқ достони, деган хулосага келинади.

РЕЗЮМЕ

В статье говорится о происхождение каракалпакского народного дастана «Кырык кыз», как один из уникальных дастанов. Данное утверждение возникло после изучения происхождения, развития и эволюции дастана в творчествах индивидуальных жирауах которые изучены на основе стиля и основных принципов представления дастанов.

SUMMARY

The presentation presents the origin of “Kyryk kiz/Fourty girls” dastan, as an unique national folk masterpiece of Karakalpak people. This claim came after analysis of origin, development and evolution of dastan by individual authors and dzhiraw’s presenting style were investigated widely based on above mentioned principles.

O‘ZBEK ADABIYOTIDA ESSE JANRI ISTIQBOLI

Z.G.Azilova – magistrant

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: esse, хотира, hikoya, maqola, qissa, adabiy o‘ylar, noma, holat, хотира-esse, badiiy–publisistik maqola, badia.

Ключевые слова: эссе, память, рассказ, статья, повесть, литературные, размышления, послание, состояние, эссе-память, художественно-публицистическая статья, художественное произведение.

Key words: essay, memory, story, article, narrative, literary thoughts, letter, condution, memory essay, fiction-public article, fiction.

O‘zbek adabiyotida roman, qissa, hikoya janrlari kabi esse janri muhim o‘rin tutadi. Keyingi yillarda jamiyatimiz hayotida, dunyoqarashimizda yuz berayotgan o‘zgarishlar, oshkoralik, fikr erkinligi, voqea-hodisalarga xolisona baho berish kabi jarayonlar esse janrining rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratdi.

Esse janri o‘zbek adabiyotida boshqa janrlarga nisbatan kechroq o‘rganila boshlangan. Shunga qaramasdan bu borada bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Jumladan, Marhabo Qo‘chqorovanning esse janri yuzasidan yozgan “Badiiy so‘z va ruhiyat manzaralari” nomli monografiyasi mazkur janrni o‘rganishda muhim yangilik bo‘ldi. Monografiyaning birinchi bo‘limida G‘arb esechiligi bilan Sharq esechiligi qiyosiy tahlilga tortilib, o‘zbek adabiyotida esse janrining taraqqiyoti Sh.Xolmirzayev, P.Qodirov, I. G‘ofurov, G‘.Xotamov singari essenavislarning hissasi tadqiq etilgan.

Esse janri dastlab Fransiyada paydo bo‘lgan. Janr asoschisi fransuz yozuvchisi, gumanist va faylasuf Mishel Montendir. U 1580-yilda inson va jamiyat taqdiri haqida mulohaza yurituvchi “Esselar” asari bilan bu janrning ilk namunasini yaratgan. O‘zbek adabiyotida esse janri XX asrning 60-yillarda paydo bo‘ldi. Ular хотира, hikoya, maqola, qissa, adabiy o‘ylar shaklida yozilgan. Bu davrda A.Muxtor, P.Qodirov, Mirtemir, Zulfiya, Sh.Xolmirzayev kabi yozuvchilar esse yaratganlar. Aslida janrning o‘ziga xos shakllarini Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Mahmud Ko-shg‘ariy asarlarida uchratishimiz mumkin. Navoiy va Bobur esa esse janrining yetuk namunalari yaratdi. Ular noma, holat, хотира shakllarida bo‘lgan.

O‘zbek adabiyotida XX asrning 70-yillaridan sof esse tipidagi asarlar paydo bo‘la boshlangan. Bu haqida O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida shunday ma‘lumot bor. “O‘zbek adabiyotida XX asrning 70-80-yillaridan esse yaratila boshlandi” [1:268]. Bu davrda Asqad Muxtor, Pirmqul Qodirov, Shukur Xolmirzayev, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov singari adiblarimiz esse janrida barakali ijod qildilar. 70-80-yillarda san‘atkor, yozuvchilar haqida хотира kitoblari yaratishga e‘tibor berildi. Хотира essegа yaqin turadi va хотирага bag‘ishlab, yozilgan asarlar хотира-esse deb nomlanadi. A.Muxtorning “Yosh do‘stlarimga” (1971,1980), P.Qodirovning “O‘ylar” (1971), A.Oripovning “Ehtiyoj farzandi” (1988), E.Vohidovning “Shoir-u she‘r-u shuur” to‘plamlarini, asosan, esselar tashkil etadi.

80-90-yillarida S.Ahmad, Sh.Xolmirzayev, E.Samandarov, I.G‘ofurov, G‘. Hatamov esse janrida ijod qildilar. M.Qo‘chqorova bu davrda yozuvchilar ijodida esse yangicha mohiyat kasb etganligini ta‘kidlaydi: “80-90-yillarga kelib, хотира, suhbat, essening badiiy–publisistik maqola va hikoya shakli S.Ahmad, P.Qodirov, Sh.Xolmirzayev singari yozuvchilar ijodida yangicha

mohiyat kasb etdi.”[2:7]. M.Qo‘chqorova yana quyidagicha fikr bildiradi: “80-90-yillar o‘zbek adabiyotida esa esse bilan badia baravar ijod shakli sifatida ko‘zga tashlanadi” [2:20]. Shu o‘rinda savol tug‘iladi. Esse va badia bir xil janrmi? Yoki ildizi, genezisi bir bo‘lgan boshqa-boshqa janrmi? Bu haqida adabiyotshunos, yozuvchilarimiz o‘zlarining fikr-mulohazalarini bildirganlar. Xususan, Pirmqul Qodirov “O‘ylar” nomli esselar to‘plamida esse va badiani hayotni badiiy-estetik tasvirlashiga ko‘ra o‘xshash janr deb hisoblaydi.

Adabiyotshunos N.Rahimjonov esa “Ilmiy tafakkur jilolari” asarida esse va badia terminlarini bir joyda esse ikkinchi joyda badia tarzida qo‘llaydi, ularni bir-biridan ajratib, janrlarga izoh bermaydi. Risolada badia haqida quyidagicha fikr bildirilgan: “Badialar, adabiy o‘ylar mohiyatan turli xil shakllarda (yozuvchi va tanqidchi dialogi, qaydlar, badiiy etyudlar, esselar kundaliklar sadolar, qayd-esdaliklar tarzida zuhur topayotir. Badialar turli xil shakllarda tajassum topsa-da, ularga yaxlit estetik butunlik baxsh etuvchi narsa, bu – san‘atkor meni san‘atkor dunyoqarashidir. Ana shu “san‘atkor meni” nuqtayi nazaridan estetik baholangan voqelik jarayonlarni, adabiy hodisalar mohiyatini anglaymiz.” [3:44]. Bu fikrlardan ko‘rinib turibdiki, N. Rahimjonov essegа badianing bir shakli sifatida baho bergan.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa badiaga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Badia [ajoyib, g‘aroyib, noyob narsa; san‘at asari]

1.Nafis, nodir.*Shoir yozmaysanmi, qani yil bo‘yi Avaylab asragan badia satring? (G‘.G‘ulom)*

2.Kishining diqqatini tortadigan badiiy asar. Shoiridan bizga lirik badialar, falsafiy mushohadalarga boy manzumalar meros bo‘lib qoladi. *Alisher bolalik yillarida ikki tilda badialar ijod qilib shuhrat topgan.(Oybek, “Navoiy”)* [5:134].

Bu ma‘lumotlarga nazar soladigan bo‘lsak, mumtoz adabiyotimizda yaratilgan tazkiralarni ham badia janri bilan bog‘lash mumkin. Ruscha adabiy-qomusiy lug‘atda esa “Esse muallif nuqtayi nazari birinchi planga chiqariladigan janr”- deyiladi. Har ikkala janrda ham birinchi o‘rinda muallif nuqtayi nazari, ya‘ni muallif meni turadi. Ikkala janr ham muallifning shaxsiy fikr-mulohazalari, kuzatishlari va hayotiy tajribalari asosiga quriladi. Shunga ko‘ra esse va badia bir-biriga teng janrdir. Bu haqida M.Qo‘chqorovanning quyidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir: “Bizningcha, keyingi yillar tajribasida kuzatilayotganidek, mazkur janrlar bir-birini inkor etmagan holda, Sharqda badia, G‘arbdе esa esse mustaqil nasriy janrlar tariqasida shakllandi” [2:21].

O‘zbek adabiyotida badia janri adabiy o‘ylar nomi bilan ham ataladi. Bizningcha, bu nomlarni yagona bir nom osti-

da birlashtirish zarur. Chunki har xil nomlash kitobxonlar orasida tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Muallif asar yozganda uning nomini aniq bilishi lozim. Sh. Xolmirzayev ta'kidlaganidek, "Shafyor odam mashinadan mashinaning farqini, chavandoz yigit otning otdan farqini bilganidek, adib degani ham adabiyot ilmidan baholi qudrat xabardor bo'lishi kerak" [5:3]. Mumtoz adabiyotimiz namunalarida essening tarixiy, biografik, ocherk, xotira, ilmiy, mulohazakorlik, shaxsiy kechinma unsurlarini ko'rishimiz mumkin. O'zbek adabiyotida esse mumtoz adabiyotimiz zahirida va Yevropa adabiyoti ta'sirida paydo bo'ldi va salkam chorak asrlilik taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi.

90-yillarga kelib, essening xotira-esse turi yanada rivojlandi. Bu davrda Said Ahmadning "Yo'qotganlarim va topganlarim", Shukur Xolmirzayevning "Binafsha hidlang amaki", "Odil aka haqida o'ylasam", Ne'mat Aminovning "Bir asr hikoyati", Habibullo Qodiriyning "Qodiriyning so'nggi kunlari", Kibriyo Qahhorovanning "Chorak asr hamnafas", Zarifa Saidnosirovaning "Oybegim mening" O'lmas Umarbekovning "Qizimga maktublar" singari esse-xotiralari yaratildi. Ularda adabiyotimizning buyuk adiblari bo'lgan Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Odil Yoqubov singari adiblarning chin insoniy fazilatlarini, shaxs va adib sifatidagi qiyofalari badiiy tarzda hayotiy voqealar bilan qiziqarli va ishonarli qilib tasvirlangan. Bu esse-xotiralar haqida adabiyotshunos Umarali Normatov "Umidbaxsh tamoyillar" kitobida hamda "Bugungi nasrimiz yo'llari", "Xotiralar jozibasi" maqolalarida o'z munosabatini bildiradi, Said Ahmad va Shukur Xolmirzayev esselariga alohida to'xtaladi. U Normatov Said Ahmadning "Yo'qotganlarim va topganlarim" esse-xotirasini "Xotiralar jozibasi" maqolasida tahlil qilgan. "Said Ahmad, M.Qo'chqarova ta'kidlaganidek, qoliplarga tushmaydigan, Saida Zununova va ta'biri bilan aytganda, talablarni suymaydigan, o'gitlarni xushlamaydigan, o'yinqaroq, bevosh odam. Shu jihatdan esse, xotira uning tabiatiga nihoyatda mos tushgan" [2:22].

90-yillardan keyin M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, N.Karimov singari yoshi ulug' munaqqidlar qatori Ulug'bek Hamdam kabi adabiyotshunoslarimizning ilmiy izlanishlarida erkin fikr, ilmiylik, badiiylik, turlicha qarashlar borligini ko'rishimiz mumkin. Matyaqub Qo'shjanovning "Jayhun jilolari" kitobi 2008-yilda nashrdan chiqdi. Bu kitobga xotiralar, ocherklar, adabiy portretlar kiritilgan. 90-yillardan keyingi davrda o'zbek adabiyotida ham ko'plab esselar yaratilmoqda. Bunga misol qilib, Ahmadjon Meliboyevning "O'zingni o'zing boshla" kitobiga kirgan barcha esselarini, Ashurali Jo'rayevning "Vatan gavhari -Toshkent", "Nomingdan aylanay Navoiy!", "Buxoro hayratlari", Abdusattor Hotamovning "Yavvoyi bog", Dadaxon Nuriyning "Surat va siyrat", "Bir suvrat tarixi", "Shoirning bog'ko'chasi", "Dengizga sayohat", esselarini keltirishimiz mumkin. Sh.Xolmirzayevning 2007-yilda chop etilgan Saylanmasining 4-jildiga muallifning turli davrlarda yaratilgan: "Ta'qdir bashorati", "Qadimiy Baqtriya tuprog'ida" "Bir oqshom suhbat yoki do'stim Ro'zi Choriyev", "Tog'larga qor tushdi", "Abdulla Qahhorni eslab...", "Odil aka haqida o'ylasam", "Shaydolik", "Ay Shuhrat akam-a...", "Yo'llar ayro tushdi, ammo..." "Binafsha hidlang amaki", "Bu kishim -ustoz men -shogird" nomli esselari kiritilgan.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 10-jild. -T.: 2005, 268-b.
2. Qo'chqarova M. Badiiy so'z va ruhiyat manzaralari. -T.: «Muharrir», 2011.
3. Rahimjonov N. Ilmiy tafakkur jilolari. -T.: «Fan», 1991,44-b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild. -T.: 2006, 134-b.
5. Qo'chqarova M. Esse - erkin ijod. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2003-yil 18-aprel, 3-b.
6. Meliboyev A. O'zingni o'zing boshla. -T.: «G'afur G'ulom», 2017. 9-10-b.

Ahmadjon Meliboyev deyarli barcha esselarida kitobxonlik madaniyati haqida o'z hayotiy tajribalari asosida so'z yuritadi. Uning "Kitob o'qish ko'nglim mayli edi", "Kitob va quyosh", "Javondagi xazina", Kitob va komillik, "Ertak to'qishni bilasizmi", "Bir kitobdan topganim" "Men uchun kitob", "Ko'ngil mulki" esselarida kitobxonlik madaniyati haqida so'z yuritiladi. U ertak, badiiy kitoblarni ko'p o'qigan bola bilan o'qimagan bola o'rtasida farq bo'lishini kitobxon bolalarning nutqi ravon, fikrlash doirasi keng, eshitganlarini o'zlashtirish qobiliyati ancha baland bo'lishini, ota-onalar shu holatga e'tibor berishlari zarurligini aytadi. Bu bilan esseda bugungi kunimiz muammosi qalamga olingan. Muallif esseda o'zi bolaligi, talabalik davri va undan keyingi davrlarda qanday kitoblar o'qiganligi haqida aytadi. Bolaligida u qo'liga qanday kitob tushsa o'qiyveradi. U qirg'iz tilidagi kitobni qiyinchilik bilan o'qib tugatadi. Bilsa u bahorda qo'zilatish mavsumi haqida yosh cho'ponlarga tavsiya ekan. Essedagi qahramon, muallifning o'zi, Tolstoy, Zolya, Balzak, Hemingvay, Drayzer, Dostoyevskiy, Chexov, Bunin va boshqalarning asarlarini ichki bir ehtiyoj sabab uch marta o'qiydi. Tafakkur xazinasidan bahramand bo'lmaganlarni kitobxonlikka chorlash yozuvchining sevimli mashg'ulotiga aylangan. O'zi uchun yangilik bo'lgan so'z va iboralarni tarixiy raqamlarni hikmatli so'zlarini yon daftariga yozib boradi. "Kitob va quyosh" essesi xitoylik mashhur faylasuf Konfutsiy haqida. Konfutsiy insonparvarlik g'oyasini keng ma'noda talqin qiladi. Konfutsiy 22 yoshida donishmand bo'lib, millatning buyuk muallimi ulug' ustoz maqomiga erishadi. 30 yoshida mamlakatda birinchi bo'lib xususiy maktabni ochadi. Muallif kitob qudratini quyosh qudrati bilan tenglashtiradi: "Kitobning qudratini faqat quyoshning qudratiga qiyoslash mumkin. Shunda ham, inson qalbi ni yoritish faqat kitobning qo'ldan keladi xolos" [6:9].

Haqiqatdan ham, kitob insonga har tamonlama kuch beradi, uni hayotda o'z maqsadi sari yetaklaydi, bir umrlik hamrohiga aylanadi. "Ulug' iqrar" essesi Lev Tolstoyning "Iqrornoma"si haqida yozilgan. Esseda Ozod Sharafiddinovning asar haqida yozganlari keltirib o'tilgan: "Tolstoy qaysi muammo haqida bahs yuritmasin, hamisha bu muammolarni o'z hayoti misolida tahlil qilgan va biror o'rinda ham samimiyatdan chekinish, maqtanchoqlikka, manmanlikka o'zini pardoqlab ko'rsatishga uringan emas" [6:10]. Tolstoy urushda odam o'ldirganligini, o'ldirish uchun duelga chaqirganini, xizmatkorlari mehnati evaziga yashaganini, ularni o'ldirganini, yolg'onchilik, ichkilikbozlik zo'ravonlik... men qilmagan jinoyat qolgan emas deya tan oladi. Bu har bir yozuvchining ham qo'ldan kelavermaydi. Tolstoy ham buyuk inson edi. Ammo u har qanday banda singari adashishi mumkin edi. U hamma narsaga ishonib ketavermagan, har qanday haqiqatni aql tarozisidan o'tkazib keyingina qabul qilgan.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi, adabiyotshunos olimlarimizda erkin yozish, shaxsiy fikr-mulohazalarini erkin tarzda bayon etish istagi paydo bo'ldi va ana shu zarurat tufayli esse janri paydo bo'ldi. Albatta, biz hajm cheklangani bois, maqolamizda o'zbek adabiyotidagi barcha esselar haqida batafsil to'xtalmadik. Ularning ayrimlari haqida so'z yuritdik. Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, esse janri adabiyotimizda bugun paydo bo'lgan janr emas. U o'zining shakllanish tarixiga ega janr hisoblanadi. Hozirgi kunda esa esse janri adabiyotimizda rivojlanib, boyib borayotgan janrlardan biridir.

REZYUME

Maqolada o'zbek adabiyotida esse janrining shakllanishi, taraqqiyoti, istiqboli, esse va badia janrlari haqida so'z yuritilgan. Maqolada o'zbek adabiyotidagi esselar haqida ma'lumotlar berilgan. Yozuvchilarning esse, xotira, badia janrlari haqida aytgan fikrlari keltirilib, qiyosiy tahlil qilingan.

В статье рассказывается о становлении, развитии, перспективах жанра эссе в узбекской литературе, а также о жанрах эссе и бадиа. В данной статье представлены сведения об эссе в узбекской литературе. Сравнительно проанализированы высказывания писателей о жанрах эссе, мемуары, бадиа.

The article describes the formation, development, prospects of the essay genre in Uzbek literature, as well as the genres of essays and badia. This article provides information about essays in Uzbek literature. The statements of writers about the genres of essays, memoirs, badia are comparatively analyzed.

ERKIN VOHIDOV LIRIKASIDA G'OYA VA ADABIY TALQIN

Z.Sh.Baltayeva – assistent o'qituvchi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Tayanch so'zlar: lirika, adabiy talqin, ifoda uslubi, she'riy dunyoqarash, uslubiy-shakliy izlanishlar, badiiy mohiyat, mantiqiy izchillik, tasavvur oqimi, tuyg'u, tasvir ruhiyati.

Ключевые слова: лирика, литературный анализ, способ выражения, поэтическое мировоззрения, методическо-форменные исследования, творческое мастерство, логическая последовательность, поток представления, чувства, духовное представление (духовное изображение).

Key words: lyrics, literary interpretation, poetical standpoint, methodological research, artistic essence, logical sequence, imagination, emotion, spirit image.

Har bir shoir jamiyat belgilab bergan axloq mezonlarini ruhiyat o'lchamiga soladi. Zero, odamzod ma'naviy olami shu qadar rang-barang hamda murakkabki, uni to'laqonli idroklash va tuyish muayyan ziddiyatlar keltirib chiqaradi. O'z navbatida, jarayon muntazamligi ijtimoiy ong muhim qirrasini – badiiy adabiyot sajiyasini ham tayin etadi. Hayot va ruhiyat, kishi va muhitni tutashtiradigan ehtiyoj doimo idrokni taqozolaydi. Unda shaxs maqsad va intilishlari, qiziqish va manfaatlarini barqarorlashadi, unda odamzod iroda yo'nalishi o'ziga xosligi va e'tiqodi butunligi markazlashadi, unda inson hissiy ilg'ami shiddati va aqliy salohiyati bosimi o'zaro to'qnashadi, unda ruhiy kechinma tig'izligi hamda g'oya tizimi falsafiy teranligi bir-biriga qorishib ketadi.

Erkin Vohidov XX asr o'zbek she'riyati zabardast vakillaridan biri. Uning ijodida inson ruhiy olami turfa ranglarda namoyon bo'ladi. Ilk ijodidan milliy nazmga "tong nafasi"ni olib kirgan shoir adabiy talqinida tasvir hamda tasavvur yig'irligi bo'rtib turadi. Haqqoniyat va nafasat yaxlitlashgan adabiy merosda ingichka sezimlar hissiy tuslanishi ustuvor! Ijodkor poetik tafakkurida tasvir ruhiyati o'ziga xosligi, hissiy idrok miqyosi o'zgaruvchanligi, mushohada qamrovi egallagan tezkorlik, talqin va tahlil o'rindoshligi, g'oya adabiy vazifadoshligi, tahlilda namoyon ma'no teranligi, tashbeh va tushuncha ziddiyati jilolanadi. Muallif qat'iy ravishda so'z miqyosini kengaytiradi, natija o'laroq ong hissiy ong tovlanishlari mohiyatni estetik baholashga zamin hozirlaydi. Unda hayotiy aqida jonli mushohadani tavsiflaydi, unda tahlil va talqin sintezi bir-birini to'ldiruvchi omilga aylanadi, unda rivoya texnikasi shaxs ham zo'hir, ham botinida mujassam evrilishlarni belgilashga xizmat qiladi, unda shuur aloqasi ijodiy mustaqillikka zamin yaratadi, unda ifoda yo'sini va tasvir tabiati ijodkor maqomini belgilaydigan omilga aylanadi:

Ey, men bilgan,

Bilmagan dunyo!

Zarradan to Koinot qadar

Fikrat bovar qilmagan dunyo! [3:79].

Tuyg'u va kechinma aloqalanirilgan mohiyati aslida o'quvchini ham shaxsiyat, ham jamiyat tutumi ziddiyatlarini anglash va qayta baholashga o'rgatadi. Ifoda qo'llanmasi aniqligi va tasvir ruhiyati yorqinligi tasavvur, tajriba hamda dunyoqarash zichligini ta'minlaydi. Shu boisdan, matnda shoir botinini band etgan tushuncha tabiiy mohiyat kasb etadi. Kitobxon tasavvurini uyg'otishga yo'naltirilgan lirik ifodada ohang kuzatilsa-da, tasvir intihosini berishdan muddao – aynan voqelikka munosabatdan hosil bo'lgan tuyg'uni jilvalantirishdan iborat. Unda ruhiy munosabat ijtimoiy mohiyatni yoritadi, unda mushohada zalvori idrokni teranlashtiradi, unda tasvir ruhiyati o'ziga xosligi ifoda mustaqilligini tayin etadi, unda obrazlar qatimi shaxs ma'naviyatini poetik tahlil predmetiga aylantiradi, unda sintaktik tanlov she'riy

dunyoqarash tig'izlashuviga yo'l ochadi, unda ma'naviy yuksalish erk sezimini tavsiflaydi, unda ko'ngil rozi, shaxs manfaati real hayotaro badiiy idrokka to'qnashadi.

Erkin Vohidov yangi davr o'zbek lirikasi tarixida munosib o'rin egallagan shoir sanaladi. Uning ijodida o'ziga xos estetik salohiyatni namoyish etadigan ifoda salmog'i mavjud. Shoir "meni" da shaxs ruhiyati hamda ijtimoiy sharoit taqozosi yaxlit tarzda omuxtalashib ketadi. Unda tahlil tig'izlashuvi tasvir ruhiyatini belgilaydi, unda tafakkur idroki so'z zalvoriini oshiradi, unda sohir bir dard nafasat hujayralariga singadi, unda falsafiy umumlashma ruhiy-axloqiy olam yaxlitligini dalolatlaydi, unda ijodiy tasavvur inson ruhi va nafasi, ovozi va ehtiyojini tasvir maydonida alohidalaydigan hamda umumlashtiradigan estetik baholash mezonlariga evriladi:

Inson jismin berib menga bul sifat,

Keng olamni qilding ko'kragimga jo.

Dilimga his berding, boshimga fikrat,

Qulog'imga ohang, ko'zimga ziyo.

Solding qalbga jonu jonga muhabbat,

Qo'limga soz tutding, tilimga navo [3:122].

Odatda, inson hayotiy aqidasi doimo cheklangan. Chunki umuminsoniy qadriyat va milliy mezon nisbiy xarakterga ega bo'lib, har bir xarakter beqarorligi ijtimoiylikka tutashadi. Shuning uchun ham badiiy xarakter yaratish mezonini xususida so'z ketganda, qahramon ichki dunyosi tadrijini belgilash va ruhiyat mintaqalari rang-barangligini mantiqan asoslashga katta ahamiyat qaratiladi. Demak, badiiy xarakter turfa ruhiy holat-kechinmalar nisbatiga asoslanadi. Obraz harakat yo'nalishini esa tasavvur va taassurot umumkayfiyatga aylanishi belgilaydi. Binobarin, har bir adabiy talqin jarayonida ratsional rivoya texnikasi tahlil ketma-ketligini ta'minlaydi. Inson va borliq, inson va jamiyat, keng ma'noda, mavjudlik jumbog'i idroki turfa falsafiy-estetik umumlashmalarni yuzaga chiqaradi. Harakat doimiy rivojlanishda bo'lganligi bois badiiy ong ham shunday xususiyatga ega. Bu hol xarakter iroda yo'nalishi hamda tugalligini ifoda markaziga ko'tarishni taqozo etadi. Inson o'z fe'l-atvoriga ko'ra murakkab individ. Chunki uning tafakkur tarzi erkin va mustaqil qutb bo'lib, individuallikni ta'minlaydi. Ayni paytda, ong mustaqilligi shartli mohiyatga ham ega. Adabiy g'oya jamiyat taqozosiga ko'ra yuzaga keladi. Demak, har bir xarakter idroki tor xususiy ma'noda olinganida ham obyektivizmga daxldor:

U, dunyoga kelib, tashvishning

Orqasidan yelib-yugurdi.

Na so'ngiga yetoldi ishning,

Na dunyoni anglab ulgurdi.

Oxir bir kun,

Aqli to'lgach, u

O'z jonining qadriga yetdi [3:148].